

BOLALAR TARBIYASIDA MAKTAB VA OILA HAMKORLIGI

Mamatqulova Dilfuza Saxobovna

1-maktab amalyotchi psixologi

ANNATATSIYA

Bolani tarbiya qilishda eng muhim va eng ta'sirchan vosita bu o'rnak bo'lishdir. Siz bola uchun ibrat bo'la oling. Qizingiz muloyim bo'lishini istasangiz, u bilan, atrofdagilar bilan muloyim gaplashing; o'g'lingiz mehribon bo'lishini xohlasangiz, unga o'yinchoq emas, mehr va e'tibor ko'proq bering. Maktabga boradigan bola ovqatlanish odobini bilsin desangiz, unga: «To'g'ri ye, chappillatma, g'imirlama,» – deb hadeb befoyda uqtiravermasdan, uning ko'ziga ko'rinarli qilib, o'zingiz odobli ovqatlaning.

Kalit so'zlar: bola psixologiyasi, oila ,xursandchilik, bolalar tarbiyasi ,oilam hamkorligi

Bola xursand bo'lib yurishini istasangiz, o'zingiz kulib yuring, bola o'ziga ishongan bo'lib voyaga yetishini maqsad qilsangiz, unga ishonch to'la ko'zlar bilan qarang. «Bunday o'qishing bilan sendan farroshdan boshqa hech kim chiqmaydi,»- desangiz aynan shunday bo'ladi. Ota-onaning bolaga nisbatan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.

Xuddi shunday, salbiy yurish-turish ham bolaga ota-onadan o'tadi. Agar bolaga shokolad yeyishni man qilsangiz o'zingiz ham uning oldida shokolad yeb o'tirmang: koka-kola bolaga zarar ekanligini bilasiz, lekin o'zingiz farzandingiz oldida bemalol koka-kolani ichasiz.

Bundan keyin unga man qilish bekor gap bo'lmaydimi? Bolaga ta'qiqlangan narsa uning oldida ota-ona tomonidan ham qilinmasligi kerak. «Biz kattamiz» degan gapni bola hali anglamaydi, bola uni shunchaki aldashayotganini his qiladi, xolos.

Bolaga uyda qanchalik ko'p ijobiy «odat»lar ko'rsatilsa, u shunchalik ijobiy bo'lib o'sadi va katta bo'lganida boshqalarning salbiy ta'siri yuqishi qiyin bo'ladi. Bolaning o'sayotgan ongi uyda ijobiy «odat» lar (xulq, muomala, turmush, ovqatlanish tarzi, ota-onaning o'zaro munosabati...)ga to'ldirilib borilmasa, u o'z hayotini boshlayotganida ko'chada, do'stlarida, qo'shnisida ko'rgan «odat» lari bilan boshlaydi. Safarning maqsadi mutlaqo zarur va boshqa sababga ko'ra. Safar maqsadini aniqlamaguningizcha, sizning hamrohingiz qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerakligini tushunolmaysiz. Agar siz, aytaylik, plyajda dam olish maqsadida sayohat qilsangiz,

xuddi shunday iste'dod va ko'nikmalarga ega bo'lgan odam sizga mos keladi. Agar qadimiy shaharlar bo'ylab sayohat qilsangiz - boshqalar bilan.

Agar siz tog'larda sayrga chiqsangiz - uchinchisi. Aks holda, siz plyajda zerikasiz, shaharlar bo'ylab sayohat qilayotganda mashina haydaydigan hech kim bo'lmaydi va tog'larda ishonchsiz o'rtoq bilan siz hatto o'lishingiz mumkin.

Agar ular ijobiy bo'lsa, nur ustiga alo nur, unday bo'lmasa-chi?

Ijobiy «odat» deganda biz nimani tushunishimiz mumkin:

- avallambor, ota-onaning bolaga bo'lgan mehri, e'tibori;
- ota-onaning bir-biriga bo'lgan hurmat va e'tibori;
- oilada kattalarga bo'lgan hurmat; chekish, ichish kabi salbiy holatlar bolaning ko'ziga ko'rinmasligi;
- bolani urmaslik, so'kmaslik;
- bolani hurmat qilish;
- uyda bolaning ko'zi oldida koka-kola, pivo, shokolad, konfetlarni kattalar iste'mol qilmasligi;
- ovqatlanish odobi;
- odob;
- mas'uliyat;
- hayvonlarga mehr;
- nochorlarga yordam qo'lini cho'zish va hokazo.

Bu misollarni cheksiz keltirsa bo'ladi. Eng asosiysi, bu ota-onalar tilida emas, amalida bo'lishi kerak. «Sen kattalarni hurmat qilishing kerak,» – deyishning o'rniga, o'zingiz kattalarning hurmatini joyiga qo'ying. «Chekish mumkin emas» deyish o'rniga bolani oldida chekmang.

Safarning maqsadi mutlaqo zarur va boshqa sababga ko'ra. Safar maqsadini aniqlamaguningizcha, sizning hamrohingiz qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerakligini tushunolmaysiz. Agar siz, aytaylik, plyajda dam olish maqsadida sayohat qilsangiz, xuddi shunday iste'dod va ko'nikmalarga ega bo'lgan odam sizga mos keladi. Agar qadimiy shaharlar bo'ylab sayohat qilsangiz - boshqalar bilan.

Agar siz tog'larda sayrga chiqsangiz - uchinchisi. Aks holda, siz plyajda zerikasiz, shaharlar bo'ylab sayohat qilayotganda mashina haydaydigan hech kim bo'lmaydi va tog'larda ishonchsiz o'rtoq bilan siz hatto o'lishingiz mumkin.

Bola shunday ijobiy ko'mak bilan katta bo'lsa, u o'zi juda mehribon, muloyim va sizga yoqadigan bo'ladi. Uning tarbiyasi sizni xursand qiladi. Yaxshi va yomonning farqiga bora oladi. Chunki u bolaligidan «yaxshi» nima ekanligini biladi.

Bolaligidan mehr va e'tiborda o'sgan bola ko'chada mehrni boshqa insonlardan yoki yomon narsalardan izlamaydi. Faqat ayrim ota-onalar mehr-e'tiborni qimmatbaho kiyimlar, o'yinchoqlar bilan adashtirib qo'yadilar.

Yana bir muhim maslahat: bola tarbiyasini urish va jazolash bilan to'g'irlashni maqsad qilsangiz, bu yo'ldan qayting, buning natijasi juda achinarli bo'ladi. Urish va jazoni siz bolaga kuchingiz jismonan yetguncha qila olasiz, vaqti kelib uning jismoniy kuchi ko'proq bo'lganda sizning gapingiz ta'sir qilmaydigan bo'lib qoladi.

Yaxshi yo'l bilan tarbiyala olmayotgan bo'lsangiz, u holda o'zingizni o'zgartiring. Ota-ona bolasiga nima yetmayotganini his qila bilishi kerak. Aynan shu yetishmovchilik bolani yomon xulqqa chaqiradi. Bolaga nima yetmasligi mumkin? Faqat ota-onaning vaqti, mehri va e'tibori. Boshqa hech narsa unga bularchalik kerak emas.

O'yinchoq, shirinlik, kiyim-kechak — bularning barchasi o'sha uchta asosiy ehtiyojning o'rini bosa olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Voxidov M. “Bolalar psixologiyasi”. Toshkent. 1974 y.
- 2.Elkonin D.B. Detskaya psixologiya. M.: 1985g.
- 3.Muxina V.S. Detskaya psixologiya. M.: 1985g.
4. Nishonova Z.T “bolalar psixodiagnostikasi” Toshkent. 1998 y.
5. G'oziev E.G., Mamatov M.M. va boshqalar ‘O'spirin psixologiyasi’ Toshkent D.U 1992